

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

Ijtimoiy ish yo‘nalishi
14.65-guruh bitiruvchisi Anvarov Alisherjon Adxamjon o‘g‘lining

**“Mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatni tashkil
etish”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Ijtimoiy ish kafedrası katta
o‘qituvchisi A.Nurmuhammadjanov.

Farg‘ona – 2018

MUNDARIJA:

Kirish	<i>3-6 betlar</i>
I bob. Mahalla – ijtimoiy institut sifatida	
1.1. Ijtimoiy institutlarning kelib chiqishi, mohiyati va mazmuni.....	
.....	<i>7-13 betlar</i>
1.2. Fuqarolar yig‘inlarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni.....	
.....	<i>14-31 betlar</i>
II bob. Mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish mexanizmlari va hamkorlik munosabatlari	
2.1. Mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishning mexanizmlari, zarurati hamda ushbu jarayonda “jamoatchilik komissiyalari”ning o‘rni.....	<i>32-41 betlar</i>
2.2. Farg‘ona viloyatidagi Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati taxlili.....	<i>43-52 betlar</i>
III bob. Mahalla tizimida kadrlar malakasini oshirish, tizim faoliyatini samarali tashkil etishda o‘zaro ijtimoiy sherikchilik munosabatlarini takomillashtirish masalalari	
3.1. Mahalla tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning malakasini oshirish tizimi va istiqbollari.....	<i>53-56 betlar</i>
3.2. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan davlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<i>57-61 betlar</i>
Xulosa va tavsiyalar	<i>62-64 betlar</i>
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	<i>65-67 betlar</i>

KIRISH

“Mahalla institutining joylarda halqning maslakdoshi va ko‘makdoshiga, ta’bir joiz bo‘lsa, “adolat tarozisiga” aylanishi, hech shubhasiz odamlarning davlatga bo‘lgan ishonchini yanada mustahakamlaydi”

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
SH.M.Mirziyoev*

1. Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi;

O‘zbekistonda mahalla shaklidagi o‘zini o‘zi boshqaruvchi noyob ijtimoiy tashkilot azaldan mavjud. Halqimiz asrlar davomida mahalla orqali jamoatchilik fikrini aniqlashning hamda birdamlik ko‘rsatishning o‘ziga xos usullarini shakllantirib, milliy o‘zligini, ulkan ma’naviy boyliklari, qadriyatlarini asrab-avaylab, boyitib kelmoqda. Istiqlol yillarida mahalla institutini rivojlantirishga, roli va vakolatlarini kengaytirishga jiddiy e’tibor qaratilib, uning tom ma’nodagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga aylanishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbekistonda mahalla institutini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan siyosat oqilona olib borilishi natijasida yildan yilga uning huquqiy asoslari mustahkamlanib, vakolatlari kengayib jamiyatdagi o‘rni va nufuzi ortib bormoqda.

SHu bilan birga, mamlakatimizda mahalla tizimida aynan aholining, jamoatchilikni faolligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish tobora muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot mavzusi ham ushbu dolzarb muammoga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mahallada ijtimoiy ishni tashkil etishning o‘zi xos jihatlari va uning samarali tashkil etish mexanizmlarini o‘rganish hamda ilmiy tahlilni amalga oshirish masalalari asosiy maqsad qilib olingan.

2. Bitiruv malakaviy ishining o‘rganilganlik darajasi;

Jamiyat tayanchi bo‘lgan oila masalalariga jiddiy e’tibor qaratish,

notinch oilalar bilan ishlash, yoshlarda ma'naviy – mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oilaning roli, “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorlik tizimi, yoshlarni oilaga tayyorlash, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash har birimizning burchimizdir.

Aholi turmush farovonligining muhim omili hisoblangan tadbirkorlik, oilaviy biznes va hunarmandchilik, kasanachilikni rivojlantirish hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatni yanada samarali tashkil etish doimo diqqat markazimizda bo‘lishi va aniq chora-tadbirlar asosida amalga oshirib borilishi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ayni paytda mahallada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkil etishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash, mahallada sog‘lom diniy munosabatlar va dinlararo bag‘rikenglik holatini yanada yaxshilash, diniy ekstremizm, aqidaparastlikning oldini olishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish, aholining huquqiy madaniyati va xushyorligi, daxldorlik xissini oshirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari samaradorligini oshirish va joylarda jamoatchilik nazoratini samarali olib borish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Bir so‘z bilan aytganda mahalla tizimida ushbu jarayonlarni tashkil etilishi orqali ijtimoiy faoliyatni izchil olib borilishini ta’minlaydi. Ushbu maqsadda jamiyatning ijtimoiy bo‘g‘ini hisoblangan “Mahalla” tizimida izlanishlar olib borish hamda tadqiqot mavzusining tanlanishiga sabab bo‘ldi.

3. Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari;

Mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganib chiqish, aholining turmush darajasini yanada oshirish, ushbu jarayonda ijtimoiy ish xodimlarining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berishga alohida e’tibor qaratildi. Mahalla instituti faoliyatining asoslari o‘rganilgan, Farg‘ona

viloyatida faoliyat olib borayotgan fuqarolarning o'zi o'zi boshqarish organlari tahlil qilingan.

Malaka ishi etarli ilmiy nazariy va amaliy darajada bajarilgan. Uning ilmiy yangilik elementlari, erishilgan natijalari, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari chuqur tahlil yo'li bilan asoslangan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- mahalla tizimi tarixi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, tizimda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish mehanizmlarini o'rganish;

- Farg'ona viloyatidagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati o'rganish, tahlil etish;

- mahalla tizimidagi "jamoatchilik komissiyalari" faoliyatini o'rganish;

- mahalla tizimidagi kadrlar masalalari, ularning malakasini oshirish jarayonlari va istiqbollarini tahlil etishdan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'ekti – Farg'ona viloyatidagi Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari.

5. Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot predmeti - Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida amalga oshirilayotgan jarayonlar hisoblanadi.

6. Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari – O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenting Qaror, Farmonlar, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari SHuningdek, Farg'ona viloyati hokimligi, Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Farg'ona viloyati Kengashining ma'lumotlari ishlatildi.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda statistik, aniq, tahliliy asoslangan ma'lumotlar, monografik kuzatuv, abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

7. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi – Ish kirish qismi,

uch bob, olti mavzu, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

8. Bitiruv malakaviy ishining yakuniy qismida hulosa va tavsiyalar bayon etilgan.

I BOB. MAHALLA – IJTIMOIIY INSTITUT SIFATIDA.

1.1. Ijtimoiy institutlarning kelib chiqishi, mohiyati va mazmuni.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish yoʻlida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarni butun jahon koʻrib turibdi va sinchkovlik bilan kuzatib bormoqda. YUrtimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik nafaqat Respublikamizda, balki jumlai jahonda keng eʼtirof etilmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishda faollik koʻrsatmoqdalar, jamiyatda manfaatlar muvozanatini taʼminlashga koʻmaklashmoqdalar.

Darhaqiqat ham, tinchlik, osoyishta turmush, barqarorlik mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan ulkan zafarlardan biridir. Zero, fuqarolik jamiyatini barpo etishning zarur shartlaridan biri ham barqarorlik, tinchlik, osoyishtalikni taʼminlash va kafolatlash hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng koʻlamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik muhitini taʼminlash uchun muhim poydevor boʻldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni bilan **2017- 2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi** ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bu Farmon bilan Oʻzbekiston Respublikasining xar tomonlama rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi desak mubolagʻa boʻlmaydi. CHunki Farmonda davlatimiz mustaqilligini

mustaxkamlash, tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan muxim chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ularni amalga oshirishda davlat va fukarolik jamiyatining barcha institutlari oldiga ustivor vazifalar qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan oldimizda turgan vazifalar ham anchagina. Xususan, gap fuqarolik jamiyatini shakllantirish to'g'risida ketar ekan, shuni alohida ta'kidlash joizki, kishilarning ongi va tasavvuridagi "fuqarolik jamiyati", "fuqarolik jamiyati institutlari" singari tushuncha va tasavvurlarini yanada kengaytirish va boyitish bilan birga, bizningcha, tiniqlashtirish ham zarur. Gap shundaki, ushbu tushunchalar keyingi paytda tez-tez takrorlanayotgan bo'lsa ham, aslida ular yangi tushunchalar emas. Chunki insoniyat bino bo'lgandan buyon fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan unsurlar ham mavjud bo'lib, yashab kelmoqda va uni rivojlantirish uchun harakat qilinmoqda. Boshqacha qilib aytganda fuqarolik jamiyati insoniyat yaratgan eng qadimiy sivilizatsiyalardan biridir. Biroq bunda eng asosiysi fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan munosabatlarni shakllantirish darajasiga qay darajada e'tibor qaratilganligi va ushbu vazifaning uddalanganligidir. SHu ma'noda yurtimizda bu masalaga konseptual vazifa sifatida munosabatda bo'linayotganligi mazkur masalaga odamzot taraqqiyoti davomidagi boshqa yondashuvlardan tubdan farq qiladi.

Jamiyatdagi u yoki bu masalalarni hal etish maqsadida faol fuqarolarning tashabbuskorligi asosida tuzilgan uyushma va tashkilotlar, guruh va birlashmalar kabilarning yig'indisi fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasiga kiradi. Binobarin, fuqarolik jamiyati institutlari aholini faol turmush kechirishga undaydigan, yon-atrofdan mavjud bo'lgan va uchrayotgan muammolarga nisbatan befarq va loqayd munosabatda bo'lmaslikka, davlat tashkilotlari hal qilishi qiyin bo'lgan yoki ularning

e'tiboridan chetda qolayotgan ushbu muammolarning munosib echimini topishga va bu bilan esa butun jamiyat ravnaqi va rivojini jadallashtirishga yordam beradigan tashkilotlardir.

Davlat esa bunday institutlarning tashkil topishi va faoliyat yuritishidan hamisha manfaatdordir, chunki ular jamiyat rivoji va taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal qilishda davlatga yaqindan ko'maklashadilar.

Bugungi kunga kelib mamlakatimiz miqyosida 9000 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritayotgan ekan, ular minglab masalalarni hal qilishda davlatga yaqindan ko'maklashmoqda. Bunda davlatning asosiy vazifalari, birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan qonunchilik asoslarini yaratish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish, ikkinchidan esa, ularni moliyaviy jihatdan rag'batlantirish va qo'llab – quvvatlashdan iboratdir.

Birgina Farg'ona viloyatida bugungi kunda hisob ro'yxatidan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlarining umumiy miqdori 794 tashkil qiladi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ko'plab muammolarni hal etishda mahalliy hokimiyatga yordam bermoqda. Xususan, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, ko'chalarni keraksiz chiqindilardan tozalash, kishilarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, tibbiy, ekologik ongi va tasavvurlarini shakllantirish va boyitish kabi masalalarda bir qator ibratli ishlarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu maqsadda aholining turli qatlamlari o'rtasida xilma-xil tadbirlar, uchrashuvlar, o'quv-seminarlar muntazam ravishda tashkillanmoqda.

Gap fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi to'g'risida ketar ekan, fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish institutlari faoliyati va uni yanada takomillashtirish masalalari to'g'risida alohida to'xtalib o'tish joizdir. Zotan, mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvining

asosiy maqsadi – kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tishdan iboratdir. “Buning ma’nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni o‘zini o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”.

Haqiqatdan ham xalqimiz hayotini o‘zini o‘zi boshqarishning betakror shakli bo‘lgan mahallasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Asrlar davomida milliy urf – odatlarimiz, an’analarimiz, rasm – rusmlarimiz, qadriyatlarimiz mahallada sayqal topib, avloddan – avlodga etib kelyapti. Kishilarni uyushtirish, ularni ezgu maqsadlar sari undash, milliy taraqqiyot g‘oyalari atrofiga birlashtirishda mahallaning o‘rni beqiyosligicha qolmoqda.

SHu ma’noda mahalla xalqimizning bag‘rikenglik va odamiylik fazilatlarini to‘liq namoyon eta olishi uchun betakror makondir. Mahallaga xos bo‘lgan jamiki jihatlar asosida aslida insonga va jamiyatga nisbatan buyuk hurmat tuyg‘usi mujassamlashgan.

SHubhasiz, mahalla institutini har tomonlama rivojlantirish uchun bu boradagi qonunchilikni takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda har bir mahalla ahlida o‘ziga xos bo‘lgan fazilatlardan faxrlanish, g‘ururlanish tuyg‘usi yuqori ekanligiga ham duch kelasiz. Bu esa o‘z navbatida ushbu ijtimoiy institut jamiyatimiz turmushida o‘z vazifasini muvaffaqiyat bilan ado etayotganligini aks ettiradi.

Viloyatdagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari vazirliklar, mahalliy hokimliklar va “Nuroni”, “Ekosan”, “Bolalar sportini rivojlantirish” jamg‘armalari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Respublika ma’naviyat-targ‘ibot markazining joylardagi bo‘limlari singari bir qator jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib bormoqdalar. Natijada ular tomonidan mahallalar faoliyatini rivojlantirish, fuqarolar o‘rtasida tinchlik-osoyishtalikni saqlash, milliy g‘oya va mafkura, ma’naviyat va ma’rifat, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, aholi salomatligini

himoyalash, fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatish, mahallalarda ommaviy sportni rivojlantirish kabi masalalarda tizim xodimlariga yaqindan yordam ko'rsatilmoqda.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda siyosiy partiyalarning faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil rivojlanish davrida mamlakatimizda ushbu masalaga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda, albatta, davlatimiz rahbarining nutq va ma'ruzalarida ko'ppartiyaviylik fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim va muqarrar sharti ekanligi, buning oqibatidagi sog'lom siyosiy raqobat uning asosiy omili ekanligiga alohida urg'u berilganligini ko'rish mumkin.

2008 yil boshidan buyon amaliyotga joriy qilinigan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun ham keyingi yillar mobaynida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda, ijtimoiy hayotni demokratlashtirishda favqulodda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ko'ppartiyaviylik ham fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismidir. Chunki aynan ko'ppartiyaviylik jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan turli ijtimoiy-siyosiy guruhlarining manfaatlari, maqsad-muddaolari, niyatlari hamda ehtiyojlarining ro'yobga chiqishi uchun tegishli zamin yaratib beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat boshqaruvini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan parlamentimiz deputatlari xalqimizning eng ishongan vakillaridir. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatini qaror toptirish va rivojlantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va boshqa demokratik institutlarning roli va ahamiyati yuksakdir. YUrtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli

islohotlarning ro'yobga chiqishi ham ko'p jihatdan ushbu institutlarning samarali hamkorlikda faoliyat ko'rsatishiga bog'liq.

Aholining keng qatlamlari manfaatlarini ifodalaydigan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zini o'zi boshqarish tizimining xalqimizga xos va mos noyob tuzilmasi hisoblangan mahalla alohida o'ringa ega. Mahalla necha asrlik tarixga ega bo'lsa ham, faqat O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyingina jamiyat hayotida o'zining munosib nufuzi va o'rniga ega bo'ldi. Mahalla O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Iclom Karimov ta'rifi bilan aytganda, tom ma'noda "ona yurt ramzi" va "xalq vijdoni"ga, "ta'sirchan ijtimoiy fuqarolik idorasi" va "demokratiya darsxonasi"ga aylandi. Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi mamlakatimizning Bosh qomusiga kiritilib, konstitutsiyaviy maqomi mustahkamlandi.

1.2. Fuqarolar yig'inlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.

Dastlabki insonparvarlik g'oyalari zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"dan o'rin olgan. Unda to'rtta asosiy masalalar, ya'ni insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi, inson huquqlarining ustuvorligi, xususiy mulk hamda insonlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi faol ishtirok etishi alohida ajratib ko'rsatiladi.

Aynan "Avesto"da ilk jamoaviylikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, insonlarning jamoa bo'lib yashash tarzi, ular o'rtasidagi munosabatlar, jamoa hayotiga bog'liq masalalarni birgalikda hal etish, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar va boshqa shu kabi masalalar tartibga solingan.

Xalqimizning o'ziga xos an'ana va qadriyatlari asrlar osha yashab kelayotgan mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'rni va ta'siri bugungi kunda yanada ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani o'zining yuksak samaralarini bermoqda.

Mahallalarning jamiyatdagi nufuzi va obro'sini oshirish, vakolatlarini kengaytirish, iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini kuchaytirish davlatimizning doimiy e'tiborida.

Mahallaga e'tibor mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, davlatimiz siyosatining ustuvor masalasi sifatida qaralgan. Oila, mahalla, maktab uch birligi jamiyatimizning mustahkam zanjiri bo'lishi belgilangan. 1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bejiz bo'lmagan. O'zbekiston Respublikasida muhim demokratik institut va

fuqarolik jamiyatining asosi deb mahallaning e'tirof etilishi ham asoslidir.

Bugungi kunda "mahalla" institutining nufuzi oshib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida birinchi bor uning huquqiy maqomi bayon etilishi va shu asosda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratilishi mahallalar jamiyatimiz va davlatimiz tomonidan qo'llab- quvvatlanayotganligining yorqin ifodasidir.

Mahalla fuqarolik instituti sifatida qator muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarib, ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishga, ijtimoiy guruhlarining tengligini saqlashga yordam beradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga oid huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlari, Prezidentimiz Qarorlari va Farmonlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasi Qarorlarida o'z aksini topgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati kengayib borgan sayin jamiyatning, fuqarolarning ularga bo'lgan talabi oshib bordi, fuqarolar yig'ini raisi etib, eng munosib fuqarolarni saylash masalasi esa har doim dolzarb bo'lib keldi. SHu sababli ham fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilarini saylashga oid normalar rivojlantirilib, 2004 yilda ushbu masalada alohida — "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ta'kidlash lozimki, mazkur Qonun asosida tashkil etilgan va o'tkazilgan 2006, 2008 va 2011 yillardagi fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovlari fidoyi fuqarolarning mahalla raisi etib saylanishini ta'minladi, ushbu saylovlarni tashkil etishda davlat organlari va boshqa turli nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligini namoyon etdi.

O'tkazilgan saylovlarda boy amaliy tajriba to'plandi, Qonunning ko'plab ilg'or tomonlari bilan birga, ayrim kamchiliklari ham namoyon

bo'ldi. Bundan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamon hamda ijtimoiy faolligi oshib borayotgan fuqarolarning orzu-umidlari fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilariga yangi-yangi talablarni qo'yadi. SHu sababli, ushbu Qonunni yanada takomiliga etkazishga zarurat tug'ildi.

2013 yil 15 martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2013 yil 28 martda Oliy Majlis Senati ma'qullagan yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun 2013 yil 22 aprelda davlatimiz rahbari tomonidan imzolanib, 23 aprelda matbuotda e'lon qilindi.

Ta'kidlash joizki, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini mahalla oqsoqollariga qo'yilayotgan yangicha talablardan kelib chiqib qayta ko'rib chiqib ishlangan. Bunda fuqarolarning ijtimoiy faolligi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini yanada oshirishni ta'minlaydigan qoidalar kiritildi.

Jumladan, qonunda saylovlarni o'tkazishning asosiy yo'nalishi sifatida muqobillik prinsipi belgilangan. Bu – o'z navbatida, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida rais va uning maslahatchilariga ikki va undan ortiq nomzod ko'rsatilishi saylovlarning qonuniyligini ta'minlaydi.

Aynan mazkur yangi tahrirdagi qonun asosida 2016 yil may iyun oylarida mahalla raislari saylovi o'tkazildi. Yangi tahrirdagi qonunga 2017 yil 14 sentyabrda bir nechta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Qonunda fuqarolar yig'inlari faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari mustahkamlandi. Jumladan, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha

chora-tadbirlarni amalga oshirishi; bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalar, yolg‘iz pensionerlar va nogironlarni aniqlashi; o‘z hududida yashovchi fuqarolarning bandligini ta‘minlashga ko‘maklashishi bilan bog‘liq normalar belgilangan.¹

SHuningdek, ushbu qonun bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘z hududida tadbirkorlik sub’ektlarining huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha vakolatlar berilib, ularning shakl va kafolatlari ham nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida maslahat markazlarini tashkil etishga haqli ekani belgilab qo‘yildi. Xususan, uning 17-moddasiga binoan maslahat markazlari:

– tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo‘lgan, tegishli hududda yashovchi fuqarolarga iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, tadbirkorlik faoliyati va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari asoslarini o‘rgatish bo‘yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil etadi, shuningdek, ularga tadbirkorlik sub’ektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalar haqida ma’lumot berishi,

– bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasa va tashkilotlar, shuningdek, hunarmandlarga biriktirilishiga ko‘maklashishi;

– tegishli hududdagi tadbirkorlik sub’ektlariga, jumladan, oilaviy

¹ Ўзбекистон Республикаси «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрири) 2 боб, 11-модда Тошкент 2013 йил

tadbirkorlik va hunarmandchilik sub'ektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishda, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kredit olish uchun hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashishi belgilangan.

Ushbu moddada, shuningdek, maslahat markazlari faoliyatini tashkil qilishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning fuqarolar yig'ini bilan hamkorligi haqidagi normalar ham o'z ifodasini topgan. Bir so'z bilan aytganda, qonunga kiritilgan yangi me'yorlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli hamda vakolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Qonunning mazkur moddasi ijrosi bo'yicha O'zbekiston respublikasi iqtisodiyot, moliya vazirliklari va Davlat soliq mo'mitalarining tegishli qarorlari bilan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha maslahat markazining namunaviy nizomi" 2013 yil 24 iyunda tasdiqlandi va 2013 yil 8 avgustda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi. Mazkur namunaviy Nizom O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va "Mahalla" xayriya jamoat fondi bilan kelishilgan. Nizomda maslahat markazining maqsad va vazifalari, tashkil etish tartibi, huquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

SHu bilan birga o'tgan davr davomida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bir necha qaror va me'yoriy xujjatlar qabul qilindi va takomillashib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 17 noyabrdagi "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 480-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 23 apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi PF-1990-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 13 yanvardagi PF-2177-sonli "Aholini aniq

yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 1999 yil 14 apreldagi (yangi tahrirdagi) "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 759-I-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2001 yil 9 apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi 200-II-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 7 fevraldagi "Obod mahalla yili" dasturi to'g'risida"gi 70-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2003 yil 6 oktyabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi 544-II-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2004 yil 26 yanvardagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov yakunlari to'g'risida"gi 590-II-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004 yil 29 apreldagi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 610-II-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 9 iyuldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari mehnatini ragbatlantirishga oid ko'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PF-4451-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 apreldagi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi 609-II-sonli Qonuni (yangi tahriri), Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olish to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 10 iyuldagi 196-sonli qaroriga ilova), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 30 sentyabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini

muvofiglashtirish bo'yicha respublika kengashini tashkil etish to'g'risida"gi 267-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 274-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 10 oktyabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2050-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 dekabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirishning tashkiliy tuzilmasi va tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 328-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 dekabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar va shaharlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiglashtirish bo'yicha hududiy kengashlarining namunaviy nizomlarini va tarkiblarini tasdiqlash to'g'risida"gi 329-sonli Qarori, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar Dasturi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-sonli Farmoniga 7-ilova), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 iyuldagi "Mahalla iftixori" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi PQ-3132-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 17 iyuldagi "Fuqarolar yig'inlari xodimlari mehnatiga YAagona tarif setkasi bo'yicha haq to'lashning razryadlarini belgilash to'g'risida"gi 500-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 iyuldagi "Fuqarolar vakillarining faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 561-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 620-sonli "Mahalla

institutning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat mulki ob'ektlaridan samarali foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagi "Fuqarolar yig'inining mas'ul kotibi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 895-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 noyabrdagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 940-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 noyabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 944-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholi, birinchi navbatda, yoshlar va xotin qizlar bandligini ta'minlashga doir faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 964-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 7-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 117-sonli qarorlari shular jumlasidandir.²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 3 fevraldagi PF-4944 Farmoni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi

² интернет маълумоти – www.nqm.uz – ЎзР Қонунчилиги / Давлат ҳуқуқий тизими асослари / Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари

rolini oshirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab, maxalla instituti rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi.

Xususan, Farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar:

fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;

jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash belgilandi:.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini

bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish belgilandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etildi.

Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e'tiboriga etkazish va mazkur masalalarni hal etish bo'yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida "Mahalla" fondining tegishincha respublika boshqaruvi hamda hududiy bo'lim va bo'linmalariga raislik qilishlari haqidagi tashabbus qo'llab-quvvatlandi.

Tuman (shahar) kengashlari o'z mulkiga, mustaqil balansiga, nomiga, banklardagi joriy va valyuta hisob raqamlariga, belgilangan namunadagi muhpiga ega bo'ladi hamda Respublika Kengashining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan ramzidan foydalanishi belgilandi.

SHuningdek, Farmonda yoshlarni ona Vatanga muhabbat, xalqimizning ko'p asrlik an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash, mahallalarda tinchlik va

osoyishtalikni ta'minlash, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash borasida joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlari joriy etildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo'yildi.

Qayd etilgan asosiy vazifalar va yangi normalarni hayotga tatbiq etish uchun Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Bu kompleks chora tadbirlar dasturida fuqarolar yig'ini faoliyati bilan bog'liq 15 ta normativ huquqiy xujjatlarga o'zgarishlar kiritildi bu esa o'z navbatida fuqarolar yig'inlari ish samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №4944-sonli farmonidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir nechta qarorlari tasdiqlandi. Xususan, 2017 yil

14 aprelda «Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi Namunaviy nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» 219-sonli qarori bilan fuqarolar yig'ini namunaviy nizomlari tasdiqlandi.

Tarkibida mahalla fuqarolar yig'ini bo'lgan qishloq yoki shaharcha fuqarolar yig'inlari tugatilib ularning aholi birlashtirilgan qismida yangi MFYlar tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan MFYlar o'z nizomini ishlab chiqishi va "Yagona darcha" markazlaridan ro'yhatdan o'tishi, mos ravishda o'z nomi tushirilgan dumaloq muxri va burchakli shtampiga ega bo'lishi belgilandi.

Ma'lumki mahalla ishida aholi vakillarining bevosita ishtiroki, har bir masalani ko'pchilik muhokamasi va munosabati bilan hal etish eng muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 iyuldagi №561-sonli qarori bilan fuqarolar vakillarining faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Fuqarolar yig'ini huzuridagi "Ota-onalar universiteti" faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 621-sonli «Fuqarolar yig'ini huzuridagi «Ota-onalar universiteti» jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga asosan Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda barcha fuqarolar yig'inlari huzurida «Ota-onalar universiteti» jamoatchilik tuzilmalarining tashkil etilishini hamda tasdiqlangan namunaviy nizom asosida ushbu jamoatchilik tuzilmalarining nizomlari ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlashi belgilandi.

SHu bilan birga mahallada faoliyat olib borayotgan xar bir xodim faoliyatini samarali tashkil etish va bu lavozimlarga munosib nomzodlarni tanlab olish maqsadida va Vazirlar Mahkamasining

2017 yil 7 oktyabrdagi “Fuqarolar yig‘inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 805-sonli qarori, 2017 yil 7 noyabrdagi “Fuqarolar yig‘inining mas’ul kotibi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 895-sonli qarorlari qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 noyabrdagi «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 944-sonli qarori bilan fuqarolar yig‘ini raisi va xodimlarining ish tartibi qirq soatlik va olti kunlik ish haftasiga o‘zgartirish, fuqarolar yig‘ini faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, ish vaqtining jamlangan hisobi yuritiladi va ish kuni soat 7-00 dan 22-00 gacha taqsimlab, yig‘ini raisi (oqsoqoli) va xodimlarining ish jadvali ularning bevosita fuqarolar yig‘ini binosida bo‘lish vaqti ko‘rsatilgan holda umumiy ko‘rinadigan joyda osib qo‘yilishi talab etiladi. Bu xolat maxalla tomonidan aholiga uzliksiz ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlaydi.

SHuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 7-sonli qaroriga asosan Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda tasdiqlangan Namunaviy nizom asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tegishli nizomlar tasdiqlanishiga hamda ularning o‘z faoliyatini ushbu nizomlar asosida tashkil etishiga ko‘maklashi belgilangan.

Ushbu Nizom «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibini belgilab berdi.

SHu bilan birga Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga uslubiy-amaliy ko'maklashish, o'zaro bog'liq bo'lgan vazifalar ijrosini to'laqonli ta'minlash tizimini shakllantirish hamda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 117-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq mahallalardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan uslubiy-amaliy ko'maklashishning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, jamoatchilik tuzilmalari ishini samarali tashkil etish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sohasida ularning tashabbuskorligini oshirishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini jalb etish;

mahallalarda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vazifalarining ijrosini ta'minlash, ular tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflarni bevosita joylardagi fuqarolardan olishda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini kengaytirish;

davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda jamoatchilik tuzilmalari rolini oshirish;

mahallalarda yuzaga kelayotgan turli muammolarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish va bartaraf etishda jamoatchilik tuzilmalari imkoniyatlarini samarali ro'yobga chiqarish kabilardir.

Ta'kidlash joizki mahalla tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlar va faollar mamlakatimiz raxbarining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 iyuldagi PQ-3132 qaroriga asosan “Maxalla iftixori” ko‘krak nishona tas’is etildi. «Mahalla iftixori» ko‘krak nishoni bilan jamiyatimizda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni va rolini kuchaytirish, joylarda ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, keng qamrovli profilaktika tadbirlari va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mahalla fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlariga munosib hissa qo‘shib kelayotgan faol, tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillari taqdirlanadilar.

Ta’kidlash joizki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning davomiyligini ta’minlabgina qolmay, ushbu jarayonning jadallashuviga, islohotlarning chuqurlashuviga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondining yaqinda bo‘lib o‘tgan V hisobot-saylov konferensiyasida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”dan kelib chiqqan holda hamda 2012 yil — Mustahkam oila yili munosabati bilan istiqboldagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Konferensiyada birinchi marta “O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondining 2012-2014 yillarga mo‘ljallangan Harakat rejasi” qabul qilindi. “Harakat rejasi”da, avvalo, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish vazifalari belgilab qo‘yilgan. Ma’lumki, Konsepsiyada mahallalarning jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirish maqsadida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” va “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari

saylovi to'g'risida"gi qonunlarga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ko'zda tutilgan. "O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondining Harakat rejasi"da mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini hamda aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, jamiyatni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, fuqarolar yig'ini raisligiga so'nggi saylovlarda oqsoqollarning deyarli 40 foizi ilk marta saylandi. Ularning va mahalla boshqa faollarining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid qonun hujjatlari bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga egadir. Umuman, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida mahalla faoliyatining tashkiliy asoslari tobora takomillashib, vazifalari ko'lami tobora kengayib bormoqda.

Ayni paytda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro munosabatlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish talab etiladi. Bu mazkur tuzilmalar xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy- ma'rifiy bilimlarini mustahkamlash, boshqaruv mahoratlarini oshirish zaruratini tug'dirdi.

II BOB. MAHALLA TIZIMIDA IJTIMOIIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI VA HAMKORLIK MUNOSABATLARI.

2.1. Mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishning mehanizmlari, zarurati hamda ushbu jarayonda “jamoatchilik komissiyalari”ning o‘rni.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarishining hududiy birliklari va tizimi sifatida shaharchalar, qishloqlar, ovullar, mahallalar xalqimiz qiyofatini belgilovchi mezondir. Mahalla azaldan maslahatlashib ish tutish, birlik, ahillikning manbai bo‘lib kelgan. Oiladagi noxush yoki xushxabardan birinchi bo‘lib xabar topadigan, hamdard va malham bo‘ladigan ham mahalladir. Oila tinchligi mahallaning, mahallaning tinchligi esa yurtning tinchligiga tayanch ekanligi oynadek ravshan. Ushbu tizimda faoliyat olib borayotgan mas’ul xodimlar ijtimoiy iqtisoiy islohotlarning, siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi va tashkilotchisidir.

Ma’lumki aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevraldagi 44-sonli “Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Hududda ehtiyojmand oilalarni aniqlashda fuqarolar yig‘inidagi maxsus komiyassiyalar xulosalar asosida fuqarolar yig‘ini Kengashi yoki fuqarolar yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) qarori qabul qilinishi lozim. Bu qarorlar asosida fuqarolarga belgilangan tartibda ko‘mak berib kelinishi maqsadga muvofiq.

SHu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2015 yil 10 avgustdagi 237-son qaroriga asosan keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, o‘zgarar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va nogironlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va gigiena tovarlari bilan bepul ta‘minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirok etadi.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahriri 18-moddasiga asosan fuqarolar yig‘inlarida fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha 8 ta komissiya tuziladi.

1. YArashtirish komissiyasi;
2. Ma‘rifat va ma‘naviyat masalalari bo‘yicha komissiya;
3. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha komissiya;
4. Xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha komissiya;
5. Voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiya;
6. Tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo‘yicha komissiya;
7. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiya;
8. Jamoatchilik nazorati va iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha komissiya.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 274-sonli qarori bilan komissiyalarning Namunaviy nizomlari tasdiqlanib, komissiyalar maqsadi va vazifalari, tarkibi ko‘rsatib o‘tilgan.

Har bir jamoatchilik komissiyalarining Nizomida komissiyaning maqsad va vazifalari, faoliyatini tashkil etish tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu

faoliyatni tashkil etishning pirovard natijasi aholi manfaatlarini himoya qilish, turmush farovonligini oshirish va ijtimoiy himoya qilishga qaratilgandir.

Aholi ijtimoiy himoya qilishda mahallalardagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha komissiyasi alohida o‘rin tutadi. Komissiya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi Nizomga, fuqarolar yig‘ini va uning kengashi qarorlariga hamda komissiya Nizomiga muvofiq amalga oshiradi. Komissiya o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Komissiyaning maqsadi fuqarolar yig‘ini hududida aniq yo‘naltirilgan asosda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga ko‘maklashishdan iborat.

- Komissiya oilalarni o‘rganish, kam ta‘minlangan oilalar va o‘zgaralar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarni aniqlash va hisobga olish;
- aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish haqida fuqarolar yig‘iniga taklif kiritish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bolali oilalarga nafaqani, bola parvarishi bo‘yicha nafaqani va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlash va to‘lash haqida qaror qabul qilish;
- o‘zgaralar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga homiylik yordamlari ko‘rsatish, ularga ijtimoiy himoyalash, sog‘lomlashtirish, maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini amalga oshirishda ko‘maklashish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Komissiya faoliyatini tashkil etishda quyidagi huquqlarga ega:

- faoliyat yo‘nalishiga oid u yoki bu masalalar yuzasidan qabul qilgan qarorlarini fuqarolar yig‘ini kengashida ko‘rib chiqish uchun taqdim etish;

- kam ta'minlangan oilalar, o'zgarar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ushbu maqsadlarda jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriylik asosidagi mablag'larini jalb etish bo'yicha fuqarolar yig'iniga taklif kiritish;

- kam ta'minlangan oilalar, voyaga etmagan bolalari bo'lgan muhtoj oilalar farzandlarini sog'lomlashtirish oromgohlarida bepul yozgi dam olish masalalarida va boshqa ijtimoiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tegishli tashkilotlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlariga murojaat qilish to'g'risida fuqarolar yig'iniga takliflar kiritish;

- faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tegishli tashkilotlardan belgilangan tartibda olish to'g'risida, zarur hollarda ma'lumotlarni joyiga borib o'rganish haqida fuqarolar yig'iniga takliflar kiritish;

- o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'z majlislariga davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillarini, mutaxassislarni va boshqa shaxslarni jalb qilish bo'yicha fuqarolar yig'ini kengashiga takliflar kiritish;

- ushbu Nizomda belgilangan vazifalarni bajarishda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha fuqarolar yig'iniga takliflar kiritish.

SHuningdek komissiya faoliyatida bir qator majburiyatlarni bajaradi. Jumladan, o'z faoliyatida qonunchilikka va mazkur Nizom talablariga qat'iy rioya qilish;

- mazkur Nizomda belgilangan vazifalarni amalga oshirish;

- fuqarolarning qadr-qimmatini kamsitilishiga, huquq va erkinliklarining poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik;

- fuqarolar yig'ini faoliyatida faol ishtirok etish, fuqarolar yig'ini va kengashining qarorlarini amaliyotga tatbiq etish orqali mahallaning nufuzi, obro'-e'tiborini mustahkamlash va ta'sirini oshirish;

- yoʻnalishi boʻyicha targʻibot ishlarini samarali va maqsadli tarzda muntazam ravishda amalga oshirish;
- kam taʼminlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va toʻlashda qonun hujjatlarida belgilangan tartibga qatʼiy rioya etilishini taʼminlash;
- qonun buzilishi holatlari aniqlangan hollarda tegishli organlarga xabar berish toʻgʻrisida fuqarolar yigʻiniga takliflar kiritish.

YUqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish mazkur jamoatchilik komissiyaning tarkibi qanday tuzilishiga bogʻliqdir.

Komissiya aʼzolari fuqarolar yigʻini tomonidan fuqarolar yigʻini hududida istiqomat qiluvchi obroʻ-eʼtiborli va hurmatga sazovor fuqarolar orasidan 2 yil muddatga, fuqarolar yigʻini raisi (oqsoqoli) esa — uning butun vakolati davriga saylanadi. Komissiya tarkibi kamida 15 kishidan iborat boʻlishi kerak.

Komissiya tarkibiga fuqarolar yigʻini raisining maslahatchilari, kotibi, fuqarolar yigʻini hududiga birlashtirilgan tuman (shahar) Bandlikka koʻmaklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi xodimi, shuningdek zaruriyat boʻlganda, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari va moliya organlari vakillari kiritiladi.

Komissiyaga fuqarolar yigʻini raisi (oqsoqoli) rahbarlik qiladi.

Komissiya aʼzosi muddatidan avval Komissiya tarkibidan chiqsa, Komissiyaning yangi aʼzosi bir oy muddat ichida fuqarolar yigʻini tomonidan saylanadi.

Komissiyaning yillik, choraklik ish rejaları Komissiya yigʻilishida muhokama etiladi va fuqarolar yigʻini kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Komissiya oʻz faoliyatini olib borishda fuqarolarning murojaatlari, Komissiya raisi va aʼzolarining takliflari, hududdagi ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga qarab yigʻilish oʻtkazadi va tegishli qarorlar

qabul qiladi.

Fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi Komissiyaning kotibi hisoblanadi va Komissiya yig'ilishlarining bayonini yuritadi va qarorlar ijrosini nazorat qiladi.

Komissiya o'z faoliyati yuzasidan har oyda fuqarolar yig'ini kengashiga, yilning har choragida fuqarolar yig'iniga hisobot berib boradi.

Komissiya raisi va a'zolari o'z faoliyati davomida fuqarolar bilan xushmuomala va xolis bo'lishlari, o'z bilimlarini, ayniqsa inson huquq va erkinliklari hamda ijtimoiy muhofaza sohasidagi huquqiy bilimlarini oshirib borishlari zarur.

Mahallalarda ijtimoiy faoliyatni samarali tashkil etishda hududdagi davolat va jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlik qilish amalga oshirilayotgan tadbirlarning natijadorligini ta'minlaydi. Ko'rib chiqilayotgan masalaga tegishliligiga ko'ra, Bandlikka ko'maklashish markazi, Moliya bo'limlari, yoshlar ittifoqi, ta'lim muassasalari, "Mahalla" XJF, "Nuroni" jamg'armasi, tadbirkorlik subektlari, tibbiyot muassasalari, kasaba uyushmalari, sanatoriylar, bolalar oromgoxlari kabi tashkilot va muassasalar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Maxallalarda ijtimoiy faoliyatni samarali tashkil etishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

Birinchidan, aholini faolligini oshirish, tashkil etilayotgan tegishli komissiya ishining jonli va samarali yo'lga qo'yish aynan uning tarkibini qanday shakllanlanganligiga bog'liq. Sohaga qiziqqan va faol, ma'lum malakaga ega, mas'uliyatli, tabiiy etakchilik qobiliyati ega, hamda turli yoshdagi fuqarolar vakillari bilan dastlabki uchrashuv o'tkazish va komissiya Nizomidan kelib maqsad va vazifalarni tushuntirish zarur.

Ikkinchidan, komissiya tarkibi shakllantirilganda uning a'zolariga oid ma'lumotlar to'liq va batafsil tuzilishi maqsadga muvofiq. YA'ni a'zoning

tugʻilgan yili, maʼlumoti, ish yoki oʻqish joyi va boshqa qoʻshimcha maʼlumotlar bilan boyitilishi komissiya tarkibining xilma xilligini taʼminlagan holda aʼzolar maʼsuliyatini oshiradi va ular ishtirokidagi yigʻilishlarda jiddiy muhokamalar oʻtkazilib, yakunida aniq takliflar berish imkoni tugʻiladi.

Uchinchidan, komissiya rahbarlarining Nizomiy vazifalarini puxta bilishlari va komissiya aʼzolari oʻrtasida vazifalar taqsimoti toʻgʻri tashkil etganligi hamda har bir aʼzoga alohida yoki birgalikda bajariladigan topshiriq berilgani juda muhimdir.


Toʻrtinchidan, komissiya raisi va aʼzolari vazifalarni bajarish uchun yordam bera oladigan sheriklarni, hamkorlarni ajratib olishi va ular bilan doimiy aloqani oʻrnatib olishi zarur.

Beshinchidan, jamoatchilik faoliyati natijasini koʻrs olish, yaʼni fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari xodimlari jamoatchilik komissiyalari tomonidan mahallada amalga oshirilgan ishlarni roʻyobga chiqishiga bevosita yordam berishi va halqni xabardor qilib turishi muhim omil hisoblanadi.

Oltinchidan, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etayotgan mahalla faollarini ragʻbatlantirib borish tizimini joriy qilish ham jamoatchilik asosida ishlovchi fuqaro faoliyatiga berilgan baho hisoblanda.

SHu bilan birga komissiyalar faoliyati samarali tashkil etishda uning Nizomiy vazifalardan kelib chiqib tuziladigan ish rejasi ham muhim oʻrin tutadi. Rejalar tuzishda tegishli komissiya aʼzolari oʻzlarining aniq takliflari bilan ishtirok etishlari maqsadga muvofiq. Umumiy holda ish reja choraklik va yillik yoki komissiyaning vakolat muddatiga moʻljallab tuzilishi mumkin. SHuningdek rejada oʻtkaziladigan tadbirlarning va muhokama etiladigan masalalarning aniq muddati koʻrsatilishi uning ijrosiga jiddiy yondashishga taʼsir qiladi.

Quyidagi sxemada (1-rasm) ijtimoiy faoliyatni bevosita tashkil etuvchi jamoatchilik komissiyalar ishini samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi bir necha omillarni ko'rish mumkin.



1-rasm. Jamoatchilik komissiyalar faoliyati

SHuningdek komissiya a'zolari safiga ilk saylangan fuqarolarga fuqarolar yig'ini xodimlari doimiy amaliy yordam berishlari, ularni haqiqiy yordamchisiga aylanishi zarur. Vazifalarni bajarishda murakkablik emas, aksincha sodda va komissiya a'zosi qobiliyati va imkoniyatlari hamda aholining ehtiyoji, qiziqish va munosabatini hisobga olinib harakat qilish

zarur.

Ma'lumki, komissiya faoliyatiga oid hujjatlar fuqarolar yig'ini raisi yoki mas'ul kotibida saqlanadi. Mas'ul kotiblar komissiyalar faoliyatiga oid xujjatlarni yuritilishida uslubiy yordam ko'rsatishi zarur. Komissiya a'zolari ichidan me'yoriy xujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi shakllanguncha barcha xujjatlarni o'z vaqtida va sifatli yuritilishiga erishishda mas'ul kotibning uslubiy yordami muhim hisoblanadi.

O'z faoliyati davomida komissiya kollegial organ (*ko'pchilik muhokama qilishi va ovozga qo'yilish*)ligini inobatga olib komissiya yig'ilishlarida har bir a'zoning o'z fikri bilan ishtirok etishini ta'minlash muhim. Bu holat ha bir a'zoning o'z fikri bo'lishi, jiddiy yondashuvi va berilgan vazifani ma'suliyat bilan ijro etishiga olib keladi.

Aholining og'irini engil qilishda eng xalqchil idora bo'lgan mahallada komissiyalar tarkibiga munosib shaxslarning jalb etilishi va faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ishini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. SHu bois huquqiy-me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalarga amal qilish ko'zlangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, fuqarolar yig'inlari huzuridagi asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini tartibga solib turuvchi nizomlar takomillashtirildi, tasdiqlandi. Endi faqat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari jiddiy yondashib, komissiya a'zolariga malakali yordam uyushtirish kerak bo'ladi.

2.2. Farg‘ona viloyatidagi Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyati.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasiga muvofiq hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mahallalarda ma’naviy muhit barqarorligini, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni ona Vatanga va milliy istiqlol g‘oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 30 sentyabr kungi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashini tashkil etish to‘g‘risida” 267-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlari faoliyatlari yo‘lga qo‘yildi. Hududiy kengashlarning asosiy vazifalari, huquqlari, ularning faoliyatini tashkil etish tartibi hamda hududiy kengashlarning o‘zaro hamkorligi Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman va shaharlar kengashlari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlarda belgilanadi.³

Kengashning asosiy vazifalari quyidagilar beliglandi;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularga qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarning amalga oshirilishiga ko‘maklashish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tahlil qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan aniq asoslangan takliflar

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 30 sentyabrda 267-sonli qaroriga 2-ilovadan kўchirma

hamda ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ilg'or tajribalarini ommalashtirish, ular tomonidan ishlab chiqilgan istiqbolli g'oyalar va loyihalarni amalga oshirishda ko'maklashish;

- fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirishda mahalla institutining ahamiyati va rolini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashish.

Kengash o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshirishligi qonun hujjatlari bilan mustahkamlandi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijro etilishi monitoringini olib boradi va ularni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir takliflar tayyorlaydi;

- fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar orasidan saylanishini ta'minlash chora-tadbirlarining amalga oshirilishiga ko'maklashadi, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqadi;

- fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli), uning o'rinbosarlari (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilari), mas'ul kotib, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi hamda "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari faoliyatini rag'batlantirishga doir takliflar

tayyorlaydi va ularning ishlarini muvofiqlashtiradi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy adabiyotlar, qo'llanmalarning mazmun-mohiyati, ularni nashr etish hamda tirajlarini belgilash bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, ularning vazifalari ko'lamini kengaytirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan davlat organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi hamda amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha takliflar tayyorlaydi va bu borada aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirishga ko'maklashadi;

- hududda keksalar va nogironlarning ijtimoiy, shu jumladan pensiya va tibbiy ta'minoti sifatini yaxshilash masalalarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish hamda ularning roli va ta'sirini kengaytirishga doir takliflar ishlab chiqadi va amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

“Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini joylarda izchillik bilan tatbiq etish, fuqarolarning faolligini, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini olib borish tizimidagi vazifalar ko'lamini yanada kengaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

- mahallalarda tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash va izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini asrash va ommalashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

- ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, mahalla institutining faoliyatini yoritishga doir tadbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

- fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning roli va ta'sirini oshirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faollarining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etadi, shuningdek ularning bilim va malakasini hamda huquqiy madaniyatini oshirish, zamonaviy boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishga oid chora-tadbirlarga ko'maklashadi;

- barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila — mahalla — ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirishga doir takliflar tayyorlaydi;

- mahalla institutining dolzarb masalalari bo'yicha xalqaro va respublika konferensiyalari hamda seminarlarini tashkil etishda va o'tkazishda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.⁴

Bugungi kunda Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Farg'ona viloyati Kengashi mazkur qaror talabalari asosida o'z faoliyatini olib bormoqda. Farg'ona viloyatida bugungi kunda 1028 fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ayni kunda Farg'ona viloyatida doimiy aholi soni **3.564.750** nafarni tashshkil etadi. SHundan, **2.022.765** nafarini shahar aholisi (56,7 %), **1.541.985** nafarini qishloq aholisi tashkil etadi (43,3 %).⁵

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolarni

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 30 сентябрдаги 267-сонли қарорига 2-иловадан кўчирма

⁵ Фарғона вилояти статистика бошқармасининг маълумотлари асосида (2018 йил 1 чорак ҳолатига)

o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Farg'ona viloyatidagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy birliklari to'g'risida MA'LUMOT

01.04.2018 yil holatiga⁶

№	Hudud nomi	Jami fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari soni	SHUNDAN:					Qo'shni davlatlar bilan chegaradosh bo'lgan FO'O'BO soni
			SHaharcha fuqarolar yig'inlari soni	Qishloq fuqarolar yig'inlari soni	Ovul fuqarolar yig'inlari soni	Mahalla fuqarolar yig'ini soni	SHu jumladan, jamoatchilik asosidagi mahallalar soni	
1.	Quvasoy sh	30	0	0	0	30	0	6
2.	Marg'ilon sh	54	0	0	0	54	0	0
3.	Qo'qon sh	65	0	0	0	65	0	0
4.	Farg'ona sh	70	0	0	0	70	0	0
5.	Beshariq t	62	0	0	0	62	0	11
6.	Bag'dod t	56	0	0	0	56	0	0
7.	Buvayda t	55	0	0	0	55	0	0
8.	Dang'ara t	48	0	0	0	48	0	5
9.	YOzyovon t	33	0	0	0	33	0	0
10.	Quva t	65	0	0	0	65	0	2
11.	Oltiariq t	72	0	0	0	72	0	4
12.	Qo'shtepa t	48	0	0	0	48	0	0
13.	Rishton t	69	0	0	0	69	0	8
14.	So'x t	27	0	0	0	27	0	12
15.	Toshloq t	51	0	0	0	51	0	0
16.	O'zbekiston	67	0	0	0	67	0	7
17.	Uchko'prik t	49	0	0	0	49	0	0
18.	Farg'ona t	73	0	0	0	73	0	25
19.	Furqat t	34	0	0	0	34	0	2
Jami:		1028	0	0	0	1028	0	82

Ayni kunda Farg'ona viloyatida 1028 ta mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, shularning 82 tasi qo'shni Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh hududlar hisoblanadi.

Mazkur **1028** ta fuqarolar yig'inlarini viloyatdagi **19** ta shahar-tumanlar kesimida tahlil etilganda Quvasoy shahrida **30** ta, Marg'ilon shahrida **54** ta, Qo'qon shahrida **65** ta, Farg'ona shahrida **70** ta, Beshariq tumanida **62** ta,

⁶ Fuqarolarni ўзини ўзи бoшқариш органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича вилоят Кенгаши ахборотномаси асосида (2018 йил 1 апрель ҳолатига)

Bag‘dod tumanida **56** ta, Buvayda tumanida **55** ta, Danag‘ar tumanida **48** ta, YOzyovon tumanida **33** ta, Quva tumanida **65** ta, Oltiariq tumanida **72** ta, Qo‘shtepa tumanida **48** ta, Rishton tumanida **69** ta, So‘x tumanida **67** ta, Toshloq tumanida **51** ta, O‘zbekiston tumanida **67** ta, Uchko‘prik tumanida **49** ta, Farg‘ona tumanida **73** ta, Furqat tumanida **34** ta fuqarolar yig‘inlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Farg‘ona viloyati shahar va tumanlari kesimidagi fuqarolar yig‘inlari to‘g‘risida

01.04.2018 yil holatiga

№	Hudud nomi	Jami fuqarolar yig‘inlari soni	SHaharlardagi MFYlar soni	SHu jumladan jamoatchilik asosida	Tumanlardagi fuqarolar yig‘ini soni	SHu jumladan jamoatchilik asosida
1	Quvasoy sh	30	30	0	0	0
2	Marg‘ilon sh	54	54	0	0	0
3	Qo‘qon sh	65	65	0	0	0
4	Farg‘ona sh	70	70	0	0	0
5	Beshariq t	62	0	0	62	0
6	Bag‘dod t	56	0	0	56	0
7	Buvayda t	55	0	0	55	0
8	Dang‘ara t	48	0	0	48	0
9	YOzyovon t	33	0	0	33	0
10	Quva t	65	0	0	65	0
11	Oltiariq t	72	0	0	72	0
12	Qo‘shtepa t	48	0	0	48	0
13	Rishton t	69	0	0	69	0
14	So‘x t	27	0	0	27	0
15	Toshloq t	51	0	0	51	0
16	O‘zbekiston	67	0	0	67	0
17	Uchko‘prik t	49	0	0	49	0
18	Farg‘ona t	73	0	0	73	0
19	Furqat t	34	0	0	34	0
Jami:		1028	219	0	809	0

Farg‘ona viloyatining ma‘muriy hududiy birligiga ko‘ra, **4** ta shahar hamda **15** ta tumanlar mavjud. Viloyatdagi mavjud **1028** ta fuqarolar yig‘inlarining **219** tasi **Quvasoy** (30 ta), **Marg‘ilon** (54 ta), **Qo‘qon** (65 ta) hamda **Farg‘ona** (70 ta) shaharlariga to‘g‘ri keladi. Qolgan **809** ta fuqarolar yig‘inlari **15** ta tumanlar ulushiga to‘g‘ri keladi.

Farg‘ona viloyatida Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatgichlarda **Farg‘ona tumani 73 ta** fuqarolar

yig'inlari, **Oltiariq tumani 72 ta** fuqarolar yig'inlari, **Farg'ona shahar 70 ta** fuqarolar yig'inlari to'g'ri keladi.

Farg'ona viloyatidagi fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari tizimidagi amaldagi **1028** ta MFY raislarining **109** nafarini ayollar tashkil etadi. Tizimda mehnat qilayotgan MFY raislarining **58** nafari 30-40 yoshlilar (2 nafar ayol), **312** nafari 40-50 yoshlilar (20 nafar ayollar), 50-60 yoshlilar **531** nafarni, **97** nafar 60 yoshdan yuqori yoshdagi hayotiy tajribaga ega bo'lgan MFY raislari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda Farg'ona viloyatidagi fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etish, moddiy texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha bosqichma-bosqich ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, mavjud 1028 ta fuqarolar yig'inlari o'zi binolariga ega bo'lib, ularning barchasi kompyuter jamlanmalari hamda mebel jihozlari bilan ta'minlangan.

Fuqarolar yig'inlari tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning halq oldida hisobdorligini yanada oshirish, amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi vazifalar bo'yicha xalq olida hisobot berishi tizimining yo'lga qo'yilganligi bu boradagi ishlarning tizimli olib borishga xizmat qiladi.

**Fuqarolar yig'inlari mas'ullarining 2018 yil 1-choragi davomida
yig'inlarga bergan hisobotlari to'g'risida
MA'LUMOT**

01.04.2018 yil holatiga

№	Hudud nomi	Jami FO'O'BO soni	SHUNDAN:					
			Yig'in raisi tomonidan fuqarolar	Fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari –	Fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari –	Diniy ma'rifat va ma'naviy-	Asosiy faoliyat yo'nalishlari komissiyalari ning raislari tomonidan yig'inga hisobotlar	

1	Quvasoy sh	30	30	30	30	30	30	30
2	Marg'ilon sh	54	54	54	54	54	54	54
3	Qo'qon sh	65	65	65	65	65	65	65
4	Farg'ona sh	70	70	70	70	67	70	70
5	Beshariq t	62	62	62	62	62	62	62
6	Bag'dod t	56	56	56	56	56	56	56
7	Buvayda t	55	55	55	55	55	55	11
8	Dang'ara t	48	48	48	48	48	48	48
9	YOzyovon t	33	28	33	33	33	33	33
10	Quva t	65	65	65	65	65	65	65
11	Oltiariq t	72	72	72	72	72	72	72
12	Qo'shtepa t	48	48	48	48	48	48	48
13	Rishton t	69	69	69	69	69	69	69
14	So'x t	27	27	27	27	27	27	27
15	Toshloq t	51	51	15	19	45	51	41
16	O'zbekiston	67	67	67	67	67	67	67
17	Uchko'prik t	49	49	49	49	49	49	49
18	Farg'ona t	73	73	73	73	73	73	73
19	Furqat t	34	34	34	34	33	34	34
Jami:		1028	1023	992	996	1018	1028	974

**“Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish
bo’yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasining amalga oshirilishi
to’g’risida
MA’LUMOT**

01.04.2018 yil holatiga

№	Hudud nomi	FO'OB O	tomonida n	SHundan jamoat kengashlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarning ko'rsatgichlari:	SHakllantirilgan targ'ibot	Targ'ibot guruhlari uchun tashkil
----------	-------------------	----------------	-------------------	---	-----------------------------------	--

				Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish bo'yicha tadbirlar	O'quvchilarning darsga qatnash davomatini uzviy tahlili bo'yicha tadbirlar	O'qishga qatnamaydigan o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan tushuntirish ishlari	guruhlari	etilgan o'quv seminarlari
1	Quvasoy sh	30	36	17	11	8	10	6
2	Marg'ilon sh	54	118	56	50	12	54	54
3	Qo'qon sh	65	2 016	780	780	456	6	4
4	Farg'ona sh	70	70	48	16	6	2	2
5	Beshariq t	62	121	36	57	28	62	3
6	Bag'dod t	56	1123	701	101	321	56	56
7	Buvayda t	55	226	136	55	75	55	2
8	Dang'ara t	48	210	63	78	69	48	3
9	YOzyovon t	33	159	92	63	4	2	0
10	Quva t	65	82	40	20	22	65	15
11	Oltiariq t	72	72	72	109	48	2	4
12	Qo'shtepa t	48	48	49	24	21	4	3
13	Rishton t	69	113	26	64	23	3	2
14	So'xt	27	33	16	9	8	9	6
15	Toshloq t	51	56	16	11	29	51	5
16	O'zbekiston	67	214	68	67	79	67	1
17	Uchko'prik t	49	116	58	27	31	49	
18	Farg'ona t	73	28	35	45	21	73	3
19	Furqat t	34	34	107	44	37	26	34
Jami:		1028	4875	2416	1631	1298	644	203

“Ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlarni ayniqsa, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nikohlanuvchi yoshlarning tibbiy ko‘rigini tashkil etish, erta turmush qurish, erta tug‘ruqlar hamda yosh oilalar o‘rtasidagi ajrimlarning oldini olish, to‘y va marosimlarni tartibga solish” bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining fuqarolar yig‘inlarida bajarilishi bo‘yicha ko‘rsatgichlar to‘g‘risida

01.04.2018 yil holatiga

№	Hudud nomi	○ ·	Erta nikohning salbiy oqibatlari bo'yicha	YOsh oilalarning ajralib ketishi holatlarini oldini olish bo'yicha	Nikohlanuvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish olish
---	------------	-----	---	--	---

			yig'nlarda targ'ibot tadbirlari haqida			yig'nlarda targ'ibot tadbirlari haqida			bo'yicha yig'nlarda targ'ibot tadbirlari haqida		
			o'tkazilgan tadbirlar soni			o'tkazilgan tadbirlar soni			o'tkazilgan tadbirlar soni		
			2017 yil 3 oyida	2018 yil 3 oyida	Tadbirda ishtirok etgan jami aholi soni (2018 yil 3 oyida)	2017 yil 3 oyida	2018 yil 3 oyida	Tadbirda ishtirok etgan jami aholi soni (2018 yil 3 oyida)	2017 yil 3 oyida	2018 yil 3 oyida	Tadbirda ishtirok etgan jami aholi soni (2018 yil 3 oyida)
1	Quvasoy sh	30	24	42	13044	38	71	2527	33	74	3022
2	Marg'ilon sh	54	185	196	5 342	190	202	5 612	189	210	5 880
3	Qo'qon sh	65	228	234	6 984	254	276	5 423	216	232	6 523
4	Farg'ona sh	70	4	5	869	3	5	965	150	180	2 684
5	Beshariq t	62	325	341	3 726	253	267	3 636	391	396	3 942
6	Bag'dod t	56	192	172	5 760	100	168	5 040	192	672	5 760
7	Buvayda t	55	168	175	3 700	155	165	3 500	145	150	3 200
8	Dang'ara t	48	178	182	6 500	185	192	6 700	201	212	7 200
9	YOzyovon t	33	31	66	1 865	38	54	1 255	33	45	1 624
10	Quva t	65	128	175	8200	117	129	7358	127	195	23400
11	Oltiariq t	72	72	74	7 959	148	155	12120	206	216	4760
12	Qo'shtepa t	51	7	9	527	12	24	320	48	51	1700
13	Rishton t	69	98	102	1183	73	79	1233	123	146	1 349
14	So'x t	27	22	38	1740	35	64	2275	30	68	2720
15	Toshloq t	48	48	51	1 530	50	58	1 897	54	68	2 218
16	O'zbekiston	67	134	152	6384	124	136	5848	135	142	5964
17	Uchko'prik t	49	79	56	2316	79	58	2485	49	48	98
18	Farg'ona t	73	24	48	3214	21	52	3564	35	46	2786
19	Furqat t	34	110	113	4124	105	115	4235	90	93	3619
Jami:		1028	2057	2231	84967	1980	2270	75993	2447	3244	88449

III BOB. MAHALLA TIZIMIDA KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH, TIZIM FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA O‘ZARO IJTIMOYIY SHERIKCHILIK MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Mahalla tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning malakasini oshirish tizimi va istiqbollari.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan tegishli vazifalar, shuningdek, ta’lim yo‘nalishida Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi va hududiy kengashlarga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish maqsadida 1999 yildan buyon “Mahalla ziyosi” respublika o‘quv-uslubiy markazi faoliyat yuritib kelmoqda.

Ushbu ta’lim muassasasining asosiy maqsadi – Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlar xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiya va qo‘llanmalar, adabiyotlar, o‘quv filmlari, axborot-ma’lumotnoma materiallari va boshqa o‘quv-metodik manbalar ishlab chiqilishini ta’minlash, fuqarolar yig‘inlari faollarining bilim va malakasini oshirish hamda takomillashtirib borishda ishtirok etishdan iborat.

Mahallaning jamiyatdagi o‘rni va rolini yanada kuchaytirish, xuquq va vakolatlarini kengaytirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ushbu tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar va xodimlarning malakasi va saviyasini muntazam oshirib borish bo‘yicha aniq chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2013 yil 10 oktyabrdagi PQ-2050-sonli qarori asosida Farg‘ona viloyati hokimligi huzurida Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etilgan.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirilishini ta‘minlash, shuningdek, fuqarolar yig‘inlari xodimlarining kasbiy va boshqaruv malakalarini yanada oshirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga tizimli metodik yordamni tashkil etish maqsadida faoliyat olib boradi.

O‘quv kurslarining asosiy vazifasi bo‘lib fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari oldida turgan vazifalar, shu jumladan yoshlarni ma‘rifatli qilish va ma‘naviy ahloqiy tarbiyalash, kasbga yo‘naltirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni, oilaviy biznesni rivojlantirish, aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini, tabiatni muhofaza qilishni tashkil etish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash sohalaridagi vazifalarni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini, kasbiy va boshqaruv ko‘nikmalarini, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini oshirishni tashkil etish hamda fuqarolar yig‘inlarini nodavlat-notijorat tashkilotlari, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini takomillashtirishga ko‘maklashishdir.

O‘quv kurslarida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari quyidagi xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha guruhlar tashkil etiladi:

- a) fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) guruhi;
- b) fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari guruhi;
- v) fuqarolar yig'inlarining mas'ul kotiblari guruhi;
- g) "Mahalla posboni" jamoat tuzilmalari rahbarlari guruhi bo'lib har bir guruhda 20-25 kishidan iborat tinglovchilar bo'ladi.

O'quv kurslarida o'quv yili sentyabr oyidan boshlanadi va keyingi kalendar yilning iyul oyigacha har bir guruh mashg'uloti bir haftadan tashkil etiladi.

Fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari guruhi 2018 yil 1 aprelgacha mashg'ulotlarda ishtirok etdi.

Mashg'ulotlarni professor o'qituvchilar, amaliyotchi mutaxassislar tomonidan ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar va uchrashuvlar tarzida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida olib boriladi.

Mashg'ulotlar davomida fuqarolar yig'inlari oldida turgan muhim vazifalar, boshqa jamaot va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik masalalari, davlat dasturlari ijrosidagi ishtiroki, fuqarolar bilan ishlashning o'ziga hos jihatlari va jamoatchilik komissiyalari ishini tashkil etish kabi nizomiy vazifalariga kiruvchi masalalar muhokama qilib boriladi.

O'tgan 2014-2018 o'quv yillari davomida o'quv kurslari tomonidan viloyatdagi mavjud 1031 ta maxalla fuqarolar yig'inlaridagi 4200 dan ortiq xodimlarning malakasini uzliksiz oshrib borilishi ta'minlanmoqda. Har bir maxalla xodimi har 2,5 yilda kamida bir marotaba mashg'ulotlarda ishtirok etadi. SHu bilan birga o'quv kurslari tomonidan joylarda maxalla xodimlar va faollari uchun sayyor seminarlar, uchrashuvlar o'tkazilib kelinmoqda. Uslubiy qo'llanma va tarqatma materiallar ishlab chiqilmoqda. Jumladan.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etish”(Farg‘ona 2015), “Fuqarolarning o‘zi o‘z boshqarish organlari xodimlari uchun eslatma” (Farg‘ona 2017)” qo‘lanmalar nashr qilinib har bir fuqarolar yig‘iniga etkazilishi ta‘minlangan. SHuningdek maxalla jamoatchilik asosida faoliyat olib boruvchi komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularning namunaviy rejalari ishlab chiqilgan.

O‘quv mashg‘ulotlari davomida har bir guruhlarda reja asosida dars mashg‘ulotlaridan tashqari ma‘naviy ma‘rifiy tadbirlar ham tashkil etilib, tinlovchilarning siyosiy bilimlarini oshirilishi va ma‘naviy oziqa olishlariga e‘tibor qaratiladi.

3.2. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar va erishilayotgan yutuqlarda fuqarolik jamiyati institutlarining munosib hissasi bor. Fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish, ularning siyosiy ongi va tafakkurini yuksaltirish, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, ularni ishga joylashtirish, aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va boshqa sohalarda fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshib borayotgani buning isbotidir. Bunda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali tizim yaratilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan taqdim etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi" nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining izchil rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki shu asosda keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida", "Ekologik nazorat to'g'risida", "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi kabi yangi qonunlari va qator muhim hujjatlar qabul qilindi.

Alohida ta'kidlash lozimki, xalqimizning milliy tabiati, azaliy an'analari va qadriyatlariga asoslangan mahalla o'zining uzoq tarixida hech qachon O'zbekiston davlat mustaqilligi davridagidek alohida e'tiborga sazovor bo'lgan emas. Davlat mustaqilligi sharofati bilan O'zbekistonda mahallalarga e'tibor berish, ularning ta'lim-tarbiyaviy huquqiy maqomini oshirish, o'zini o'zi boshqarish, beva-bechoralar, nogironlarning biron bir sababga ko'ra omadi yurishmagan oilalar va odamlarning issiq-sovug'idan, g'am-tashvishlaridan xabardor bo'lib, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish

singari masalalar bo'yicha, shuningdek yanada obod va go'zal, ko'rkam va chiroyli bo'lishi, el-ulus mehr-muhabbatini qozonishida yangi davr boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 117-sonli "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga uslubiy-amaliy ko'maklashish, o'zaro bog'liq bo'lgan vazifalar ijrosini to'laqonli ta'minlash tizimini shakllantirish hamda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishdir asosiy vazifa etib belgilangan.

Xususan, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashining taklifiga ko'ra, vazirliklar, idoralar va nodavlat tashkilotlar fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga birlashtirildi.

Fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga birlashtirilgan davlat organlari	Fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga birlashtirilgan nodavlat organlari
Ichki ishlar vazirligi	O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi
Madaniyat vazirligi	O'zbekiston musulmonlari idorasi
Sog'liqni saqlash vazirligi	Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	Kasaba uyushmalari federatsiyasi
Moliya vazirligi	«Nuroni» jamg'armasi
Xalq ta'limi vazirligi	O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Jismoniy tarbiya va sport vazirligi	Savdo-sanoat palatasi
Adliya vazirligi	tijorat banklari
Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	O'zbekiston Ekologik harakati
Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi	O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi

Davlat soliq qo‘mitasi	Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi
	“Hunarmand” uyushmasi

Hujjatga ilovada fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari va ularga biriktirilgan tuzilmalar bilan o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari tasdiqlandi.

Davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan fuqarolar yig‘inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga uslubiy-amaliy ko‘maklashishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi, ular qatoridan quyidagilar ham o‘rin olgan:

- jamoatchilik tuzilmalari ishini samarali tashkil etish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sohasida ularning tashabbuskorligini oshirishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini jalb etish;

- mahallalarda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vazifalarining ijrosini ta‘minlash, ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflarni bevosita joylardan olishda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini kengaytirish;

- davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda jamoatchilik tuzilmalari rolini oshirish;

- mahallalarda yuzaga kelayotgan turli muammolarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish va bartaraf etishda jamoatchilik tuzilmalari imkoniyatlarini samarali ro‘yobga chiqarish.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashiga biriktirilgan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda har yili quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etildi:

- tegishli jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- jamoatchilik tuzilmalari rahbarlarining malakasini oshirish maqsadida sohaning tajribali mutaxassislarini jalb etgan holda, tumanlar (shaharlar) kesimida alohida reja asosida o'quv seminarlarini tashkil etish.

Biriktirilgan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlariga tashabbuskor va faol bo'lgan jamoatchilik tuzilmalari vakillarini fuqarolar yig'ini raisining tavsiyanomasi asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tavsiya etildi.

Hozirgi kunda har qachongidan ham dolzarbligi ortgan masalalaridan biri – bu voyaga etmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ularning tarbiyasi va axloq-odobiga alohida e'tibor bilan qarash, ularning nazoratsiz qolishlarining oldini olish, bo'sh vaqtlarini foydali mashg'ulotlar bilan o'tkazishlariga shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Ayni masalalarni hal qilishda prokuratura organlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

YOsh avlodni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik: Jismonan sog'lom, ma'nan etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi 175-sonli qarori bilan 4 ta yo'nalish, 25 ta baddan iborat "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora- tadbirlar majmuasi tasdiqlandi. Hozir mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida "Oila-mahalla- ta'lim muassasasi" jamoatchilik Kengashlari tashkil etilib, Kengash a'zolari tomonidan ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish, o'quvchilarning darslarga

qatnashishini o'rganish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 9-sinfni tamomlayotgan maktab o'quvchilari ta'limning keyingi bosqichiga to'liq qamrab olinmoqda, kollej bitiruvchilari esa ish bilan ta'minlanmoqda. 1994 yilda ishlab chiqilgan 2012 yilda qayta ishlangan "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi konsepsiyasi bugun navqiron avlodni turli xil huquqbuzarliklar, ekstremizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi illatlardan asrab-avaylash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, yoshlarni kasbga yo'naltirishning muhim omili bo'lmoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR:

O‘zbekistonda mahalla institutini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan siyosat oqilona olib borilishi natijasida yildan yilga uning huquqiy asoslari mustahkamlanib, vakolatlari kengayib jamiyatdagi o‘rni va nufuzi ortib bormoqda.

SHu bilan birga, mamlakatimizda mahalla tizimida aynan aholining, jamoatchilikni faolligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish tobora muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot mavzusi ham ushbu dolzarb muammoga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mahallada ijtimoiy ishni tashkil etishning o‘zi xos jihatlari va uning samarali tashkil etish mexanizmlarini o‘rganish hamda ilmiy tahlilni amalga oshirish masalalari asosiy maqsad qilib olingan.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarishining hududiy birliklari va tizimi sifatida shaharchalar, qishloqlar, ovullar, mahallalar xalqimiz qiyofatini belgilovchi mezondir. Mahalla azaldan maslahatlashib ish tutish, birlik, ahillikning manbai bo‘lib kelgan. Oiladagi noxush yoki xushxabardan birinchi bo‘lib xabar topadigan, hamdard va malham bo‘ladigan ham mahalladir. Oila tinchligi mahallaning, mahallaning tinchligi esa yurtning tinchligiga tayanch ekanligi oynadek ravshan. Ushbu tizimda faoliyat olib borayotgan mas’ul xodimlar ijtimoiy iqtisoiy islohotlarning, siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi va tashkilotchisidir.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida mavzuning dolzarbliigi, uning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalarining ahamiyati ochib berildi. Jumladan, bitiruv malakaviy ishining “Mahalla – ijtimoiy institut sifatida” deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda ijtimoiy institutlarning kelib chiqishi, mohiyati va mazmuni, shuningdek fuqarolar yig‘inlarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga alohida ahamiyat qaratildi. “Mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish mexanizmlari va hamkorlik munosabatlari” nomli

ikkinchi bobida mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishning mehanizmlari, zarurati hamda ushbu jarayonda “jamoatchilik komissiyalari”ning o‘rni, shuningdek, Farg‘ona viloyatidagi Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati tahlil etildi. Bitiruv malakaviy ishining “Mahalla tizimida kadrlar malakasini oshirish, tizim faoliyatini samarali tashkil etishda o‘zaro ijtimoiy sherikchilik munosabatlarini takomillashtirish masalalari” nomli uchinchi bobida mahalla tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning malakasini oshirish tizimi va istiqbollari, shuningdek, Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan davlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari ochib berildi.

YUqoridagidagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ushbu bitiruv malakaviy ishida o‘rganilgan mavzu bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga aynan mos keladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish, turmush darajasini yaxshilash, extiyojmand oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning bosh maqsadi hisoblanadi. Aholi turmush farovonligining muhim omili hisoblangan tadbirkorlik, oilaviy biznes va hunarmandchilik, kasanachilikni rivojlantirish hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatni yanada samarali tashkil etish doimo diqqat markazimizda bo‘lishi va aniq chora-tadbirlar asosida amalga oshirib borilishi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Davlatimizda olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

- “Mahalla”, jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qonunchilikda belgilangan vakolatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur shart-sharoitlarini yaratish;

- jamoatchilik tuzilmalari ishini samarali tashkil etish;

- mahallalarda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vazifalarining ijrosini ta'minlash, ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflarni bevosita joylardan olishda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini kengaytirish;

- davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini yanada oshirish;

- har chorak yakuni bo'yicha mahalliy hokimlik organlari, korxonalar, tashkilot va muassasa rahbarlarining aholini mahalla olidadagi hisobdorligini qat'iy yo'lga qo'yish;

- aholi, birinchi navbatda yoshlarning mahalla ishida faol ishtirokini ta'minlash, maqsadida ta'lim muassasalarida "Mahalla" instituti va uning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha fanlarni mashg'ulot sifatida o'tkazilishini joriy qilish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar.

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014 yil (yangi tahriri).

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevraldagi 44-sonli **“Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”**gi Qarori.

1.3. **“Fuqarolarning o‘zin o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2013 yil 22 aprel.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi 274 – sonli **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi Qarori.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 10 oktyabrdagi **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish to‘g‘risida”**gi PQ-2050-sonli Qarori.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 avgustdagi 237-sonli **“Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi Qarori.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi **“Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-4944 sonli Farmoni.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan **“2017 — 2021**

yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HAKKATLAR STRATEGIYASI”.

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 iyuldagi 561-sonli **“Fuqarolar vakillarining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori,**

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 noyabrdagi 944-sonli **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori**

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 964-sonli **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining aholi, birinchi navbatda, yoshlar va xotin qizlar bandligini ta‘minlashga doir faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori,**

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.01.2018 yil 5 yanvardagi **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.**

II. Prezident asarlari.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti asarlari:

- 2.1. Karimov I.A. **“O‘zbekiston Mustaqillika erishish ostonasida”** – Toshkent, “O‘zbekiston ” nashriyoti 2011 yil.
- 2.1. Karimov I.A. **“Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir”** – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti 2015 yil.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

- 2.3. Mirziyoev SH.M. **“Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”** – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti 2016 yil.
- 2.4. Mirziyoev SH.M. **“Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”** – Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017 yil.
- 2.5. Mirziyoev SH.M. **“Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”** – Toshkent, “O‘zbekiston” 2017 yil.

III. Kitoblar, risolalar hamda internet materiallari:

- 3.1. Axmedov A.J. **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etish”** – Farg‘ona, “Farg‘ona nashriyoti” 2015 yil.
- 3.2. Axmedov A.J. **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari uchun eslatma”** – Farg‘ona, “Farg‘ona nashriyoti” 2017 yil.
- 3.3. “Mahalla ko‘zgusi” ilmiy-ommabop jurnali.
- 3.3. www.uz.a.uz
- 3.4. www.norma.uz
- 3.5. www.gov.uz
- 3.6. www.lex.uz
- 3.7. www.mahallakengashi.uz